

V. MENEJMENT VA MARKETING

УДК:331.52

INSON KAPITALI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI MENEJMENTI

Ochilov Akram Odilovich – “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.d., professor;
Djumayev Yashin Tursunalievich – erkin izlanuvchi,
Muratov A’zam Alisher o’g’li – talaba (QarDU)
Alimardonova Gulfizoda Alimardon qizi – talaba (QarDU)

УПРАВЛЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМ КАПИТАЛОМ И ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Очилов Акрам Одилович – заведующий кафедрой «Экономика», д.э.н., профессор;
Джумаев Яшин Турсуналиевич - свободный искатель,
Муратов Аъзам Алишер угли - студент (КарГУ)
Алимардонова Гуфизода Алимардон кизи – студент (КарГУ)

HUMAN CAPITAL MANAGEMENT AND FACTORS OF ITS DEVELOPMENT

Ochilov Akram Odilovich – Head of the Department of Economics, DSc, professor;
Djumaev Yashin Tursunalievich - free seeker,
Muratov Azam Alisher ugli - student (KarSU)
Alimardonova Gulfizoda Alimardon kizi – student (KarSU)

Annotatsiya. Maqolada inson kapitali tushunchasi, uning vujudga kelish xususiyatlari, mazmun-mohiyati, O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasini belgilashda inson kapitalini rivojlantirish maqsadlari va uning rivojlanish omillarini boshqarish yo‘nalishlari yoritilgan. Bundan tashqari maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning inson kapitaliga yondashuvlari, ularning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari tahlil qilingan va olingan xulosalar asosida tegishli tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: inson omili, sog‘liqni saqlash, aholi bandligi, inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion iqtisodiyot, ta‘lim, bilim, milliy daromad, iqtisodiy o‘shish, sarmoyalar.

Аннотация. В статье описывается понятие человеческого капитала, особенности его формирования, его сущность, цели развития человеческого капитала в определении стратегии развития Республики Узбекистан и направленности факторов его развития. Кроме этого в статье анализируются подходы зарубежных и отечественных ученых к человеческому капиталу, результаты их исследований и на основе полученных выводов даются соответствующие рекомендации.

Ключевые слова: человеческий фактор, здравоохранение, занятость населения, человеческий капитал, интеллектуальный потенциал, инновационная экономика, образование, знания, национальный доход, экономический рост, инвестиции.

Annotation. The article describes the concept of human capital, the features of its formation, its essence, the goals of human capital development in determining the development strategy of the Republic of Uzbekistan and the direction of the factors of its development. In addition, the article analyzes the approaches of foreign and domestic scientists to human capital, the results of their research, and based on the findings obtained, appropriate recommendations are given.

Keywords: human factor, healthcare, employment, human capital, intellectual potential, innovative economy, education, knowledge, national income, economic growth, investment.

1. KIRISH

Globallasuv, bozor iqtisodiyoti, tezkor axborot almashinuvi, raqamli va yashil iqtisodiyot dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda mamlakatlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida mamlakatda mavjud xom-ashyo zahiralari va moddiy boyliklardan unumli foydalanish bilan bir qatorda eng muhim bo'lgan omillardan biri bu inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitalining asosini bilim tashkil etadi, bilim esa barcha taraqqiyot omillarining harakatlantiruvchi kuchidir.

Inson kapitalini rivojlantirish har bir jamiyatda bo'lgani kabi yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning nufuzi, kuch-qudrati va iqtisodiyotini yuksaltirish maqsadida aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, uning farovon turmush darajasi va hayot sifatini yaxshilash, yoshlarimiz kelajagini ta'minlash kabi omillarni ijobiy hal qilishda muhim ahamiyatga egadir.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar hamda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar tezkor taraqqiyotining asosiy boyligi sifatida inson kapitalini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishning dolzarbligi insoniyat sivilizatsiyasining har bir bosqichida kun tartibida bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yetti ustuvor yo'nalish asosida 100 nomda maqsadlar belgilangan bo'lib, to'rtinchi yo'nalish – Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish deb nomlangan va bu yo'nalishda Strategiyaning 37-70-maqsadlari o'rin egallagan.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasini belgilashda inson kapitalini rivojlantirish quyidagi maqsadlar asosida boshqariladi [1]:

– 37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasa-

larining ishtirokini 30 foizga yetkazish. Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalarini to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkazish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish. Umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish;

– 38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022/2023 yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish;

– 39-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish. 2022–2026 yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish;

– 40-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimida budjet mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash. Maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

– 41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish. Yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish. O'quv o'rinlari sonini 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026 yilda 8 foizga, shu jumladan 2022 yilda 3 foizga oshirish. 2022–2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar

maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshirish;

– 42-maqсад: 2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish. Milliy o'quv dasturiga asosan 2026 yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan 2022 yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish. Milliy o'quv dasturi bo'yicha yangi metodikalarga o'qituvchilarni o'qitish maqsadida Elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026 yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish. Umumta'lim maktablari darida darslik va o'quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish;

– 43-maqсад: Malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish. Iqtidorli o'qituvchilarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqalashtirilgan holda oshirib borish. O'qituvchilarga malaka toifalarini berish tartibini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda malakani baholash metodikasi asosida adolatli va shaffof tizimni joriy etish;

– 44-maqсад: Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish. Maktabda faoliyat olib borishi uchun uchun har bir fan bo'yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatni talablarini belgilash. Toifaga ega bo'lmagan maktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini diagnostikadan o'tkazish. Umumta'lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta'lim maskanlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'ldirish ishlarini davom ettirish;

– 46-maqсад: Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish. 2022 yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish. To'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta'lim muassasalarini tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish. 2026 yilda qabul ko'rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish. Davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy

mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish. Davlat oliy ta'lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash;

– 47-maqсад: 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash. Oliy ta'lim muassasalarining QS va THE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish. 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini tanlash. Salohiyati va o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha 5 yilga mo'ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

– 49-maqсад: 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish. 2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish. 2026 yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish;

– 50-maqсад: “El-yurt umidi” jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish. Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o'tkazish. Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta'lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg'arma tomonidan ochiq tanlov e'lon qilish va o'tkazish;

– 51-maqсад: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish. Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab

chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida to'lov-grant asosida o'qishni tashkil etish;

– 52-maqsad: Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030 yilga qadar top-50 mamlakatlari qatoriga kirish. Global innovatsion indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo'yicha O'zbekiston pozitsiyasini yaxshilash. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish;

– 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish. Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish. ... Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish. ... Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish [1].

“Kapital” – nemischa so'z. Bosh, asosiy, degan ma'nolarni beradi. «O'zbek tilining izohli lug'ati»da u uch ma'noda keltirilgan. 1. (iqt.) – O'zini o'zi ko'paytirish uchun foydalaniladigan, o'z egasiga foyda, daromad keltiradigan boylik (qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, moddiy mol-mulk va sh.k.). 2. Katta mablag', ko'p pul, boylik. 3. (Ko'chma ma'noda) kimgadir katta boylik, qadriyat hisoblangan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan,

ahamiyatga molik narsa (Jamiyatimizda inson salomatligi bebaho kapital hisoblanadi). Kapitalist – kapital egasi; o'z mablag'larini, ba'zan yollanma mehnatni foyda olish uchun ishlatadigan shaxs [2].

Ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan “kapital” so'ziga ta'rif berib o'tilgan. Shu jumladan, kapital so'zining ma'nosi – kapital (fransuzcha, inglizcha “capital” va lotincha “capitalis” so'zlaridan – “bosh, asosiy”) “daromad keltirishga qodir bo'lgan yoki odamlar tomonidan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar” [3].

“Kapital” atamasi odatda kelgusida ishlab chiqarishda foydalanilishi mo'ljallanayotgan mehnat mahsulotlariga nisbatan ishlatiladi. Kapitalni yaratish jarayoni sarmoya kiritish deb ataladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish esa o'z navbatida avvalo, xarajatlar qilish, pirovardida bu xarajatlarning qoplanishini nazarda tutadi.

Dastlabki paytda inson kapitali deganda odamlarning mehnatga bo'lgan qobiliyati – ta'lim va kasb ko'nikmalariga sarmoyalar jamlanmasi tushunilgan. Keyinchalik inson kapitali tushunchasi jiddiy ravishda kengaydi. Jahon banki ekspertlari tadqiqotlari asosida o'rganilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turar joy, iste'mol xarajatlari, insonlarning ovqatlanishi, sog'liqni saqlash, kiyim-kechak, ta'lim, ma'naviyatga, madaniyatga va boshqalarga tegishli sarflar, shuningdek davlatning bu maqsadlar uchun xarajatlari inson kapitalining tarkibiy qismlaridir.

Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanish tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim iqtisodiy adabiyotlar va tarixiy manbalarda inson kapitali konsepsiyasi XVII asrda paydo bo'lganligi keltiriladi. Inson kapitali birinchilardan bo'lib 1676 yilda Vilyam Petti tomonidan urushda qurollarni yo'qotishni inson hayotini yo'qotish bilan taqqoslash asosida qo'llanilgan [4]. 1776 yilda Adam Smit xalqlarning boyligi asosan ishchilar soni va ular ko'nikmasining sifati bilan belgilanishini ko'rsatgan. Adam Smit millatlar boyligida inson kapitalini o'rganish bo'yicha ilk qadamlarni qo'ydi. U inson kapitali iborasidan foydalangan bo'lmas-da, insonning foydali qobiliyati boyligining asosiy

manbai va mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ekanligini e'tirof etgan.

XIX asrning oxirida klassik nazariyaning izdoshlari ularning qarashlarini rivojlantirib, iqtisodiy nazariyaning yangi klassik yo'nalishni shakllantirdilar. Kembrij universitetining professori A.Marshall bu maktab asoschisi hisoblanadi.

Inson kapitalini yaratish va rivojlantirishning muhimlik darajasini ta'lim va yangi g'oya ishlab chiqarish omiliga bog'lagan holda A. Marshall quyidagilarni yozib qoldirgan: "Ta'lim nom-nishonsiz o'lib ketishi mumkin bo'lgan ko'plar uchun o'zlarining salohiyatlarini namoyon qilish imkonini beradi", "Sanoatda bitta ixtirodan foydalanishdan olingan iqtisodiy foyda butun shaharda ta'limga xarajatlarni qoplash uchun yetarlidir, zero Bessemerning asosiy ixtiroi kabi yangi g'oya ishlab chiqarish quvvatlarini yuz ming odam mehnati hisobiga yaratiladigan darajada oshirishni ta'minlaydi" [5]. A. Marshall inson kapitalining qaytimida pulsizlikni e'tiborga olish lozim degan tushunchani kengaytirib, inson kapitalini o'rganishni jismoniy kapitaldek bir xil tayanch deb e'tirof etdi. Shuningdek u tashqari u inson kapitaliga uzoq muddatli sarmoyalar samarasi va bu jarayonda insonning rolini tahlil qildi.

Inson kapitali masalasi XIX asrdan boshlab o'rganila boshlangan. Bu tushuncha fanga Teodor Shuls tomonidan kiritilgan. O'sha paytda bu yo'nalish iqtisod fanining istiqbolli jabhalaridan biriga aylangan. Inson kapitali nazariyasini shakllantirish, uni rivojlantirish, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishiga Teodor Shuls katta hissa qo'shgan. U birinchilardan bo'lib inson kapitali tushunchasiga ishlab chiqaruvchi omil sifatida qaragan. T. Shuls o'zining "An'anaviy agrar sohasining transformatsiyasi" asari [6]da qishloq xo'jaligidagi texnologiyalarning roliga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, bu texnologiyalarning darajasi, eng avvalo fermerlar egallagan bilimlarga bog'liqdir. Fermerlar bilimi darajasining pastligi hosildorlik o'sishi va qishloq xo'jaligi samaradorligi ortishi yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Inson kapitali xizmatlar oqimini hosil qiladigan aktiv sifatida qaraladi va ko'pincha

daromad sifatida o'lchanadi. Inson kapitali insoniyatning o'ziga xos ichki qobiliyatini anglatadi. Bu qobiliyatlar ta'lim, ish, sog'liq kapitallari orqali taraqqiy ettiriladi. T. Shuls inson kapitalida ishchi kuchining unumdorligini o'sishini tushuntirishda ta'lim roliga va umumiy sarmoyalarga e'tiborini qaratdi. Uning o'rgatish usuli ta'limning iqtisodiy ahamiyati iqtisodchilar ta'limi sohasining boshlanishi bilan iqtisodchilar tomonidan fan sifatida maqsadli ta'limga e'tiborini qaratgan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib inson kapitali iqtisod ta'limi va mehnatning asosiy yutug'iga aylandi. Gerri Bekker inson kapitalining miqdori xodimning butun umri davomidagi ish haqining kapitallashishi bilan baholanadi. Inson kapitaliga sarmoyalar ta'limga, sog'liqni saqlashga va mehnatga xarajatlardir. Inson kapitaliga sarmoyalar mehnat unumdorligini oshirish uchun qo'llanilgan asosiy vosita hisoblanadi.

O'tgan asrlarda xorijiy olimlar inson kapitali masalalari bilan shug'ullanishgan va hozirgi davrda ham bu ishlar tezkor tartibda davom etayotganligini e'tirof etdik. Yurtimizda bu borada bir qator tadqiqotchilar tomonidan inson kapitalining rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etib o'tganlar. Jumladan, Akromova Sh.G. ning [7] maqolasida R.A. Ubaydullayeva, Q.X.Abduraxmonov, S.S. G'ulomov, A.V.Vaxobov, Sh.N. Zaynutdinov, M.Q. Pardayev, B.N. Navro'zzoda, D.M.Karimova, N.K.Zokirova, N.X.Raximova, B.K. Goyibnazarov, Sh.J. Ergashxodjayeva, G.P.G'ulomova, L.B.Shibarshova kabi olimlar tomonidan inson kapitalining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilganligi ta'kidlangan.

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalari va tajriba shuni ko'rsatadiki, inson kapitali quyidagi mazmun va mohiyatga ega:

– inson kapitali: odamlarning soni emas, bir insondagi hunar, kasblar soni;

– inson kapitali: inson faoliyatining samaradorligiga va mehnatning yuqori unumdorligi hamda ishlab chiqarishning o'sishiga imkon beruvchi zahira;

– inson kapitali: inson faoliyati davomida to‘planadigan malaka va tajriba zahirasi;

– inson kapitali: insonning intellekti, sog‘lig‘i, bilimi, sifatli va unumli mehnat faoliyati, turmush darajasi va hayot sifati yaxshilanishining kafolati;

– inson kapitali: odamning foyda keltirish qobiliyatining o‘lchovi. Bunga uning tug‘ma qobiliyatlari, talanti, bilimlari va orttirgan kasbiy malakalari kiradi;

– inson kapitali: inson ega bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning yig‘indisi;

– inson kapitali: odamlarning soni emas, balki kreativligi va samaradorligi;

– inson kapitali: innovatsion iqtisodiyot va rivojlanishning keyingi bosqichi – bilimlar iqtisodiyotini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi bosh omil;

– inson kapitali: shaxsdagi yuksak ma‘naviyat;

inson kapitali: chuqur bilim, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik, yuksak kasbiy salohiyat asosida yaratiluvchi omil;

Bularni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, inson kapitali – intellektual bilim va innovatsion iqtisodiyotning o‘shishiga, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etilishiga, mehnat resurslaridan samarali va unumli foydalanishga, ishlab chiqarish hajmining ortishiga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, jamiyat va oila farovonligini ta‘minlashning asosiy omilidir.

L.I.Shabirovaning ta‘kidlashicha, ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlar ta‘lim olish orqali olingan bilimlar o‘zining yangi sifat ko‘rinishida kapital shaklini oladi [8].

Bilimlar jamiyatdagi bor imkoniyatlardan foydalanishni, ko‘nikma-malakalar esa ijtimoiy taraqqiyot va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaydi. Bu hodisa doimiy ravishda ta‘limni muntazam ravishda moliyalashtirib borishni taqozo etadi.

Inson kapitali darajasini bir nechta usulga asoslanib baholash mumkin. An‘anaga ko‘ra, iqtisodchilar buni ko‘proq ta‘lim olgan odamlarning daromadi bilan hisoblashadi. Tadqiqotlar har bir qo‘shimcha ta‘lim yili inson daromadini o‘rtacha 10 foiz oshirishini

isbotladi. Ta‘limga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi. Aksariyat mamlakatlarda nisbatan o‘ziga to‘q oilalarda tug‘ilgan farzandlar bolalikdanoq keng imkoniyatlardan foydalanishni boshlaydi va u butun umri davomida qator afzalliklarni, qulayliklarni qo‘lga kiritadi. Aksincha, nochor oilalar farzandi shunday imkoniyatlardan bebahra qoladi [9,10].

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy-tadqiqot ishida adabiyotlar solishtirma tahlili, monografik tadqiqot, xorijiy tajribalar tahlili, mamlakatda olib borilayotga islohotlar tahlili, mantiqiy-xulosaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

4. ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Inson kapitali uchun maxsus element sifatida ta‘lim belgilanadi va uning asosiy qismlari to‘rt komponent birlashmasidan – madaniy va etnik xususiyatlar, umumiy ta‘lim, kasb-hunar ta‘limi va asosiy malakadan tashkil topadi. Ta‘limga yo‘naltirilgan investitsiya nafaqat mamlakatni rivojlantirishning maxsus strategiyasi, balki inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatdir. Buning natijasida inson kapitali takomillashib, moddiy farovonlik va sog‘lom turmush tarziga erishiladi. Inson kapitali har bir insonning individual kapital shaklidir. Qobiliyat, bilim, ko‘nikma va tajriba har bir yoshning shaxsiy mulkidir.

Yoshlarni yuqori malakali kasb sohiblari etib tarbiyalash bugun yangi O‘zbekistonning ustuvor davlat siyosatiga aylandi. Xususan, oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi 25 foizdan oshdi. Oliy ta‘lim muassasalari soni qisqa muddatda 78 tadan 157 taga yetkazildi. Sirtqi va masofaviy ta‘lim shakllari, ilmiy darajalarga ega professor-o‘qituvchilar maoshiga 60 foizgacha ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi.

Har qanday inson kapitalining mukammalligi uning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lgan ta‘lim sifatiga bevosita bog‘liq. Zamonaviy oliy ta‘limga alohida urg‘u berilar ekan, endi diplomli mutaxassis emas, balki raqobatbardosh, malakali va irodasi mustahkam, yangi davr ruhiga mos fazilatlariga ega kadrlarga har joyda talab yuqori.

Jamiyatda ta'lim darajasi qanday holatda taraqqiy etgan bo'lsa, milliy iqtisodiyotda shunga mos kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar faoliyat ko'rsatishadi va shunga muvofiq iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ta'lim sohasi iqtisodiy o'sishga erishishning imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda ta'lim tizimining iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu jumladan, A.O. Ochilov ilmiy tadqiqotlari natijasida mamlakatda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonining ortishi mamlakat YAIM ko'rsatkichiga to'g'ri proporsional ekanligini isbotlagan [11].

Mamlakatda ta'lim bilan bir qatorda sog'liqni saqlashga mablag' ajratish ham muhim ahamiyatga ega. Bu sarmoyalar kasalliklar va o'limning qisqarishiga, inson umrining mehnatga layoqatli qismining uzayishiga, shu bilan bir qatorda, inson kapitalining faoliyat ko'rsatish muddatining uzayishiga olib keladi.

Inson salomatligining holati – bu, tabiiy kapital bo'lib, bir qismi meros sifatida, boshqa qismi esa insonning o'zi va jamiyatning xarajatlari natijasi sifatida ta'minlanadi. Sog'liqni saqlash bilan bog'liq bo'lgan sarmoyalardan maqsadli va asosli foydalanish insonning hayoti davomida inson kapitalining yemirilish jarayonini sekinlashtiradi.

Inson kapitali aktivlarini yaratishda alohida kompaniyalar, tashkilotlar va firmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ko'pincha shu kapitalning eng ta'sirli ishlab chiqaruvchilari sifatida namoyon bo'ladi, chunki ular shaxsni tayyorlashdagi ehtiyojlarga mos sharoitga hamda ta'lim va tayyorgarlikka mablag' ajratishning ilg'or yo'nalishlari haqida axborotga ega. Ammo firmalar sarmoyalar sof daromad keltirguniga qadar sarmoya kiritishni davom ettirishadi.

Inson kapitaliga sarmoyalar oila doirasida ham juda muhim, chunki inson kapitalining hosil bo'lishi va ko'payishi oilaning o'z farzandiga mablag' ajratishiga bevosita bog'liqdir. Bir tomondan farzand ota-ona uchun o'z hayotidan qoniqishi va mamnuniyatining asosiy manbai bo'lsa, ikkinchi tomondan esa farzand tarbiyasi aniq va noaniq xarajatlar manbai hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda har qanday sarmoyalar bozori kabi inson kapitali bozori ham kamchiliklardan xoli emas:

- aholining katta qismida o'ziga sarmoya kiritish uchun mablag' yetishmaydi;

- yoshlar o'rtasida ta'limning qadri, jamiyatdagi o'rni va roli, ahamiyati va dolzarbligi to'g'risidagi ma'lumotlarning yetishmasligi inson kapitaliga yetarli darajada sarmoyalar kiritilmasligida yoki noto'g'ri sarmoya kiritilishiga zamin yaratadi;

- ish kuchining nisbatan ko'p bo'lishi yoki erkin harakatlanishi ish beruvchilarni ishchi kuchini taraqqiy ettirishga mablag' sarflashga intilishlarini kamaytiradi.

Inson kapitaliga sarmoyalar bozorining bu va ayrim boshqa kamchiliklari tufayli bozor mexanizmlari o'z-o'zidan buni eng maqbul tarzda tartibga soladi, degan fikr asosli emas. Shunga muvofiq ham davlatning inson kapitaliga sarmoyalar kiritishda bevosita ishtirok etishi nixoyatda muhim hisoblanadi.

Inson kapitali omili uning ma'lumot darajasiga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Zero, yangi asrda insonning ma'naviy qiyofasini bilim va qobiliyatlar belgilaydiki, buni insonni oliy qadriyat deb biladigan jamiyatdagina ta'minlash mumkin.

Inson kapitalini oshirish – innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim omilidir.

Mamlakatda aholining intellektual salohiyati yuqori darajaga ko'tarilishi iqtisodiyot real sektorida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada jamiyat a'zolari ehtiyoji qondirilishi doimiy ravishda ta'minlanib boriladi.

Daromadi aholi jon boshiga taqsimlaganda, eng yuqori darajaga ega dunyo mamlakatlari orasida tabiiy zahiralari nihoyatda kam davlatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shveysariya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Daniya va boshqa shu kabi mamlakatlarni shular qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, jahonda tabiiy zaxiralarga juda boy bo'lgan bir qator mamlakatlar ham borki, bu mamlakatlar daromadlarini aholi jon boshiga hisoblaganda, ko'rsatkichi birmuncha past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Braziliya, Rossiya, Argentina, JAR va boshqa davlatlar shular

jumlasidandir. Bu holat shundan dalolat beradiki, mamlakat taraqqiyoti mehnat kishisining yaratuvchanlik kuchini safarbar etishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Har bir jamiyat a'zosining mehnat hissasi evaziga mamlakatni yuksaltirish mumkinligi Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya mamlakatlari tajribasida ko'rinadi.

Jahon banki va Jahon iqtisodiy forumi ekspertlari 124 mamlakatda amalga oshirgan tadqiqotlari natijasidan quyidagi xulosalarni e'tirof etishmoqda:

iqtisodiy o'sish umumiy miqdorining 64,0% dan ko'prog'i inson kapitali bilan bog'liqdir;

o'tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati iqtisodiy o'sish umumiy miqdorining faqat 16,0 % ni ta'minlaydi;

mamlakatning tabiiy resurslari iqtisodiy o'sish umumiy miqdorining faqat 20,0% gacha bo'lgan qismini ta'minlaydi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inson kapitali individning imkoniyatlari bilan bog'liq va o'zini ko'rsatish imkoniyatlarini inson kapitali bazasini xalqning chuqur madaniyatini tashkil etadi. Inson kapitali tobora jamiyat boyligining aqliy jihatlariga, inson omiliga, uning jamiyat hayotidagi o'rniga va ahamiyatiga e'tibor berishni talab etmoqda. Insoniyatning bugungi eng buyuk yutuqlari va muvaffaqiyatlari ham inson kapitali omili ta'sirida yuz bermoqda.

Yangi O'zbekistonning Yangi taraqqiyot davri – 3-renessans poydevorini ham inson kapitalini rivojlantirish asosida qurilishiga tayyorgarlik ko'rilayotganligi hozirgi jamiyat hayotida inson kapitalining o'rnini va ahamiyatini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60. 2022 yil 28 yanvar. Manba: lex.uz
2. Quronov M. Inson kapitali maktabda yaratiladi. 2018 yil 23 iyul. Manba: <http://www.marifat.uz/marifataruknlar/rasmiy/1486.htm>
3. Экономическая энциклопедия / Гл. ред. Абалкин Л.И. – М., 1999. – С. 271.
4. Петти В. Экономические и статистические работы / Петти В. Том 1. – М.: Соцэкгиз, 1940. – С.156.
5. Marshal A. "The pure theory of foreign trade and the pure theory of domestic values. – L., 1879", Маршалл А. Принципы экономической науки. – М.: Прогресс, 1993. – С. 294.
6. Shuls T.U. "An'anaviy agrar sohasining transformatsiyasi" ("Transforming Traditional Agriculture", 1964); Shultz T. Human Capital, family planning and their effects on population growth // American Economic Review, 1994. May. – P. 45.
7. Akromova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalining rivojlanishi. – T.: Iqtisod-Moliya., 2003. – B. 16.
8. Шабирова Л.И. Образование как фактор развития. /Население Узбекистана: 15 лет независимого развития. – Т., 2007. – С 88-94.
9. Основные макроэкономические тренды Узбекистана. Информационно-аналитический обзор. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Министерство экономики и промышленности. – Ташкент: 2019 г.
10. <http://istiqlol.samdu.uz/uzl/xxi/4>
11. Ochilov A.O. The Higher Education Dynamics and Economic Growth: The Case of Uzbekistan // Journal of Management Value & Ethics. – India, 2017. – Vol. 7. – No. 2 (Apr.-June). – P. 46-53.